LUQMON BO’RIXON ASARLARIDA MILLIY URF-ODAT VA MAROSIMLAR TALQINI *(“JAZIRAMADAGI ODAMLAR” ROMANI MISOLIDA)*

Jumaboyeva Gulshoda Egamberdi qizi
Andijon davlat universiteti

Annotatsiya. *Ushbu maqolada Luqmon Bo’rixonning “Jaziramadagi odamlar” romanidagi o’zbek xalqi orasida uzoq vaqtdan buyon qo’llanilib, an’anaga aylanib ulgurgan, ma’naviy me’rosimiz hisoblangan urf- odatlar va marosimlar tadqiq qilingan, izohlangan. Milliy urf- odatlar va marosimlarning mazkur romandagi poetik vazifalari yoritilgan va asar voqealarining xalqonaligini oshirishdagi ahamiyati ko’rsatib o’tilgan*

Kalit so’zlar: *urf- odat, marosim, motam, folklor, roman, xalqonalik, poetik vazifa,*

Annotation. *In this article, traditions and rituals in te novel by Lukmon Burikhon “ People in the Heat” that have been used for a long time and maintained as our national heritage among our nations were clearly indentified, explained. The poetic function of national traditions and rituals are highlitedin the novel and their importance in increasing the nationality of the work is shown.*

Key words: *tradition, ritual, mourning, folklore, novel, nationality, poetic function.*

Milliy urf-odatlar – millatning turmush-tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojiga xizmat qiladigan ijtimoiy madaniy hayotida o‘z aksini topgan, doim takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko‘pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko‘nikmalar ko‘rinishidir. Milliy urf-odatlar bizning xalqimizda o‘ziga xos o‘zbekona tarixiy xususiyatlarga ega bo‘lib, an’anaviy va zamonaviy ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi. Milliy urf-odatlar alohida olingan shaxs va millat doirasida shakllanib boradi. Masalan, o‘zbeklarda kichiklarning kattalarga salom berishi, erta turib uy hovlini supurib-sidirib, mehmonlarga alohida izzat-ikrom ko‘rsatish, bayram arafasida betob va qiynalganlar, yordamga muhtojlar, qariyalar holidan xabar olish shular jumlasidandir. Mustabid tuzum davrida ko‘plab urf odatlarimiz eskilik sarqiti deb poymol qilindi, bu esa yoshlar ta’lim-tarbiyasiga milliy o‘zlikni asrab-avaylashga va shu orqali o‘zbek millatining ma’naviy rivojiga

salbiy ta’sir ko‘rsatdi. Milliy urf-odatlar millat va elatning tarixi, an’analari, xalq og‘zaki ijodi, san’at va adabiyoti, turmush tarzi va boshqa omillar ta’sirida shakllanib, takomillashib boradi.

O’z millatning urf- odatlari, marosimlari, milliy qadriyatlari, insonlarning his tuyg’ularini badiiy asarlarida aks ettirayotgan ijod ahli kitobxon qalbida ajdodlari o’tmishiga bo’lgan, vatanga bo’lgan ehtiromini yanada oshiradi. Natijada kitobxon o’z ajdodlari tomonidan yaratilgan miliy me’rosga, asriy urf- odatlarga muhabbat ruhida tarbiyalanadi, milliy g’ururi yuksaladi.

Xuddi shunday millliyligimizni yosh avlod ongiga singdirishni maqsad qilgan adiblarimizdan biri Luqmon Bo’rixondir. Ijodkorning “ Jaziramadagi odamlar ” romani xalqona ruhda yozilganligi bilan alohida ahamiyatga egadir. Aslida har qanday yozuvchining o’z tilida yaratgan asari shu millatning milliyligini, albatta, ask ettiradi. Xususan, “ Jaziramadagi odamlar ” romanida ham milliylik ruhi o’z aksini topgan.

Tahlil va natijalar.

“Ilgari tog’ ayollari o’rimga chiqishganda bolalarini xurjunga solib, eshakka ortib olishgan. Chinor bechora ham shuytib mayib bo’lib qolgan-da… xurjundaligida chap oyog’ining to’pig’i joyidan qo’zg’olib ketgan. Buni birov sezmagan. Bola chinqirib yig’lasa, kinnalabdi deb qushnoch momoga yugurishgan.”[56]

Ko‘z tegishi – haq, bor narsa. Xalqimiz orasida «kinna kiribdi» iborasi ham ko‘z tegishi ma'nosida ishlatiladi. Ko‘z tegishi bir kishining o‘zga birovga hasad qilishi natijasidir. Xalqimizda yosh bola chinqirib yig’lasa ko’z tekkan, kinnalagan deyishadi va uni qaratish uchun xalq orasidan chiqqan emchilarga olib borishgan. Emchilar, yani o’sha qushnoch momolar yosh bolaning qorniga non silab, qozon tagidagi qorakuyadan yuzlariga surib qo’yganlar. Eng qizig’i, shu amallardan so’ng bola yig’idan to’xtagan. Emchi bolaning holatiga qarab, suqlangani uchun tovuq so’yib qon chiqarishni aytgan. Bu udumlar yoki marosimlar hozir ham xalqimiz orasida mavjud. Xalqimizdagi bunday marosimlarni o‘rgangan tadqiqotchi Olim Qayumovdir[57]. Adabiyotshunos o’z tadqiqot ishida elimizdagi shomonlar faoliyatini tadqiq qilgan.

Mulla Mirza hech kimni bezovta qilmaslik niyatida chaqqongina chopqillab kelib, hamma bilan galma- gal qo’l olib salomlashib chiqdi. – Omi-in,– dedi u bo’sh

[56] 1Luqmon Bo’rixon Jaziramadagi odamlar . Toshkent, G’.G’ulom NMIU,2005, 11-bet
[57]Qayumov Olim O’zbek folklorida pari obrazi. Fil fan nom diss, T, 1999

stullardan biriga omonatgina o’tirib. – Xudoyim iqbollaringizni baland qilsin, uy ro’zg’oringiz tinch, hotirjam bo’lsin![58]

Dono xalqimiz orasida “ Oltin olma, duo ol”, degan naql bor. Shuning uchun uyga kelgan mehmondan duo olinadi. Duo – Xudoga iltijo qilib, o’zi yoki boshqalar uchun uzoq umr, baxt, najot tilash va yomonlikni qaytarishni so’rash. Duo barcha dinlarning asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U ibtidoiy davrda so’zning sehrli kuchiga ishonish, uning yordamida ilohiy kuchlardan foydalanish mumkin degan ishonch asosida shakllangan. Duolar, xususan, o’zbek xalq afsun duolari ustida ishlagan olima Salima Mirzayevadir.[59]

Asar voqealarini jonli, hayotiy va ishonarli qilib gavdalantirishni maqsad qilgan ijodkor o’zbek xalqidagi har bir udum va an’anaga alohida ahamiyat bergan va ulardan kerakli o’rinlarda unumli foydalangan.

Ular o’sha kungi to’y dabdabasi hamyonlarining dabdalasini chiqargan bo’lsa da, sir boy bermay,hamon “to’y muborak”, “kelin muborak”ka kelib– ketib turganlarni bearmon siylashar,”vecher”imizda bo’lmadingiz, deya o’zlaricha o’pkalanishar, izidan o’sha tantanalarni ta’riflay-ta’riflay, zimdan maqtanib-maqtanib olishar edi.[60]

O’zbek urf- odatlaridan biri to’ydan so’ng qo’ni – qo’shni, mahalla – ko’y , qarindosh – urug’ to’y bo’lib o’tgan xonadonga “ kelin muborak bo’lsin, to’yni yaxshi o’tkazib oldingizmi”, deya xabar olish uchun mehmonga kelishadi. Mazkur asarda ushbu marosim juda aniq qilib bayon etilgan.

Onamning bezovtalanib uyg’otishi bejiz emas ekan. Uzunquloq gaplarga qaraganda, uyqusida tamshangan odam hayot lazzatiga qonmay erta o’lib ketar emish, uyqusida tamshangan odam nelargadir ilhaq bo’larmishu biroq yetisholmay lab yalab qolar emish…[61]

Adib asarda samimiy va soda o’zbek ayolini tasvirlaydi. Safarmurod chavandoz Lolaxon kelinning orqasidan kelgan shaharlik qizlarga ergashib shaharga ketmoqchi bo’lganda falokatga yo’liqadi. Xotini Toshbibi checha shu falokatdan bir kun avval uyqusida tamshanganini aytadi. Shunda Samadning onasi erini bu holatdan darrov uyg’otganida kori ziyoni ketishi mumkinligini aytadi.

–Meni Lolaxon kelin tiriltirdi! – debdi Qalqonov muallimning hokisor xotini. Anovi shuni Xosiyat opa men bechora yarimjondan xabarlashgani borgandi[62].

[58]Luqmon Bo’rixon Jaziramadagi odamlar . Toshkent, G’.G’ulom NMIU,2005, 25-bet
[59]Salimaxon Mirzayeva Afsun duolarining janr xususiyati va badiiyati. Fil fan nom diss, T, 2006
[60] Luqmon Bo’rixon Jaziramadagi odamlar . Toshkent, G’.G’ulom NMIU,2005, 56-bet
[61] Shu manbaa 65-bet
[62] Shu manbaa 74-bet

Kasal odamdan hol- ahvol so’rash, uning holidan xabar olish odamiyikning bir ko’rinishidir. Bu an’ana hozirgacha xalqimiz orasida mavjud. Bemor yotgan kishining ahvolini so’rash bilan birga unga ma’nan yordam beradi, kuch- quvvat bag’ishlagandek bo’ladi. Xalqimizda “kasal ko’rdi” marosimi ham bo’lib, unda mahalla –ko’y odamlari yig’ilib,bemor kishinikiga tashrif buyurishadi. Ayollar issiq taom tayyorlab olishadi. Bunda bemorning ko’ngli to’g’day ko’tariladi.

Deyarli har oqshom qishloqning bo’y yetgan qizlari to’p-to’p bo’lib, Lolaxon yangamning uyiga yig’ilishar, shaharlik kelinchakning kamtarona sepini qayta-qayta zavq- shavq bilan tomosha qilishar, goh pichirlashib, goh chuvullashib, Lolaxonni savollarga ko’mib tashlashar edi[63] *...*

O’sha oqshom Shabnamlarnikida kichik bir xudoyi- maraka o’tkazilayotgan edi. ...bu Shabnamning onasi, Qalqonov muallimning xokisor xotini, ya’nikim mulla Mirzaning suyukli qizi og’ir bir kasallikdan qutulib oyoqqa turganligi uchun, shunchaki, shukrona tariqasida o’tkazilayotgan ma’raka edi.[64]

Aslida ma’raka (arab. — jang, yig‘in) — biror muhim voqea, to‘y, ta’ziya va boshqa munosabatlar bilan o‘tkaziladigan marosim, yig‘in. Ayrim tumanlarda turli munosabat bilan xonadonlarda o‘tkaziladigan yig‘inlar ham ma’raka deb nomlanadi.

Ko’p o’tmay otam boshiga do’ppi, egniga olacha choponini kiyib, shosha-pisha uydan chiqdi-da, darvoza tomon otildi, izidan uzun, serpopuk ro’moliga o’ralashgancha onam ham ildamgina jo’nadi[65].

Xalqimizda a’za marosimida erkaklar boshiga do’ppi, egniga chopon kiyishi , ayollar esa katta ro’molni jagidan tang’ib o’rashi odat sanaladi. Bugungi kunda ham ushbu odatga amal qilib kelinmoqda.

Allaqachondan beri chuv- chuvlashga tushgan xotin- xalaj er- xotinning hol-ahvoliga boqib battar uvillashar, bir- birini quchoqlab ho’ngrashar, bu holdan tevarakdagi erkaklar ham quyilib kelayotgan ko’z -yoshlarini tiyolmay, kaftlari bilan arti- artib olishar edi.[66]

Badiiy asarlarda qo’llangan motam marosimlari insonni qay darajada e’zozlanishini ko’rsatib berish bilan birga qahramonlar ruhiy olami, uning insoniy qiyofasini ham yoritib berishga xizmat qiladi. Luqmon Bo’rixon ushbu badiiy asarida ham ma’raka marosimini shunday jonli tasvirlaganki, kitobxon bevosita O’roqboyning a’zasida ishtirok etayotgandek tasavvur qiladi. O’roqning armiyadan mayitini olib kelishganda onasi Xosiyat xolaning, otasi Fayzulla akaning ruhiy holati yozuvchi tomonidan real tasvirlab berilgan.

[63] Shu manbaa 83-bet
[64] Shu manbaa 88-bet
[65]Shu manbaa 140-bet
[66] Shu manbaa 143-bet

“Xalq orasiga xos rang- barang va original tashbehlar, ramz, mubolag’a kabi badiiy tasvir vositalari ham asar sujet va kompozitsiyasining to’laqonli chiqishini ta’minlaydigan badiiyat unsurlari hisoblanadi”[67]

Yeti kun Fayzulla aka xonadoni aza ochdi. Yeti kun bu yerga uzoq- yaqindan kelib ketayotgan boshi ham, ko’zi ham hamdardlarning oyog’i uzilmadi . Yetti kun qo’shnimizning hovlisida ohu voh, yig’i- sig’i saslari tinmadi.[68]

Kishi vafot etganda motam marosini o’tkazish xalqimizga xos odat. Xalqimizda motam marosimi Odam Ato va Momo Havodan me’ros an’anadir. Folklorda qo’llanilgan motam marosimlarining genezisidan tortib, bugungi kunda islatilish o’rinlarini D. O’rayevaning tadqiqida ham atroflicha ko’rishimiz mumkin.[69]

Xulosa. Romanda qo’llanilgan urf- odat va marosimlar asarga xalqona ruh bag’ishlagan. Luqmon Bo’rixon folklor orqali asarning tushunarli bo’lishini ta’minlagan hamda qahramonlar ruhiy olamini tasvirlab beruvchi vosita sifatida o’rinli foydalagan. Bunday unsurlardan foydalanish asarning kishi qalbiga singishiga yordam beradi. Chunki ijodkor ahli xalqdan olgan narsasiga sayqal berib, yana xalqqa ajoyib tarzda yetkazadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qomus.info. Ensiklopediya [Elektron resurs]. — https://qomus.info.onlayn.ensiklopediya
2. Imomkarimova M. O’tkir Hoshimov asarlarida milliy qadriyatlar talqini . Fil fan nom diss, T, 2004
3. Qayumov Olim O’zbek folklorida pari obrazi. Fil fan nom diss, T, 1999
4. S. Mirzayeva. O’zbek realistik adabiyotida folklor an’analari,O’quv-uslubiy qo’l.T,2005.
5. Mahbuba Baxshilloyevna. Xalq dostonlarida sovchilik marosimi badiiy ifodasi, maqola. 2021
6. T. Mirzayev. O’zbek xalq maqollari.T,2005.
7. O’rayeva D. O’zbek motam marosimi folklorining janri tarkibi genezisi va badiiyati. Fil fan dok diss.avtoref, T,2005

[67] Imomkarimova M. O’tkir Hoshimov asarlarida milliy qadriyatlar talqini . Fil fan nom diss, T, 2004
[68] Shu manbaa 146-bet
[69] O’rayeva D. O’zbek motam marosimi folklorining janri tarkibi genezisi va badiiyati. Fil fan dok diss.avtoref, T,2005